



DUDUQLANISHNING KELIB CHIQISH SABABLARI VA XUSUSIYATLARI

G'aniyeva Zilola Komil qizi

Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti

Logopediya yo'nalishi MSPD-2U talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15879546>

Annotatsiya: Ushbu maqolada duduqlanish muammosining psixologik va pedagogik jihatlarini chuqur tahlil qilinadi. Duduqlanishning fiziologik va psixik sabablari, uning klinik ko'rinishlari, nutqdagi mushak tortishishlari, nafas olishdagi buzilishlar va fonetik-grammatik kamchiliklar asosida yondashuvlar keltirilgan. Duduqlanuvchi bolalarda kuzatiladigan psixologik holatlar – logofobiya, hayajon, o'ziga ishonchsizlik, nutqiy passivlik kabi omillar alohida o'rganiladi. Maqolada duduqlanishning kechishi, darajalari, turlari va uni keltirib chiqaruvchi asosiy omillar tahlil qilinib, u bilan kurashishda kompleks yondashuv zarurligi ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: Duduqlanish, nutqiy buzilish, mushak tortishishi, logofobiya, psixologik omillar, fiziologik sabablar, korreksion yondashuv

Аннотация: В данной статье всесторонне анализируются психологические и педагогические аспекты заикания. Рассматриваются физиологические и психические причины заикания, его клинические проявления, мышечные судороги в речи, нарушения дыхания и фонетико-грамматические особенности. Особое внимание уделяется психологическим проявлениям у заикающихся детей – логофобии, тревожности, неуверенности в себе и речевой пассивности. Анализируются типы, степени и формы заикания, а также подчеркивается необходимость комплексного подхода в коррекции данного речевого расстройства.

Ключевые слова: Заикание, речевое расстройство, мышечные спазмы, логофобия, психологические факторы, физиологические причины, коррекционный подход

Abstract: This article provides a comprehensive analysis of the psychological and pedagogical aspects of stuttering. It explores the physiological and psychological causes, clinical features, speech-related muscle spasms, breathing difficulties, and phonetic-grammatical challenges associated with stuttering. Special attention is given to the psychological characteristics observed in children who stutter, such as logophobia, anxiety, self-doubt, and speech passivity. The article examines the different types, degrees, and



manifestations of stuttering and emphasizes the need for a complex, multidisciplinary approach in addressing and correcting this speech disorder.

Keywords: Stuttering, Speech disorder, Muscle spasms, Logophobia, Psychological factors, Physiological causes, Corrective approach

Duduqlanish psixologik-pedagogik yo'nalish mutaxasislari tomonidan o'rganilgan bo'lib, duduqlanishda muloqot qilishning cheklanganligi ikkilamchi ruhiy buzilishlarni keltirib chiqarishini ta'kidlashgan. (G.A.Volkova, R.E.Levina, S.A.Mironova, V.I. Seliverstov, N.A.Cheveleva, A.V.Yastrebova va boshqalar). Shuningdek, R.E.Levina duduqlanishning paydo bo'lishini til vositalaridan foydalana olmaslik tufayli mustaqil nutqqa o'tishning qiyinligi bilan bog'liqligini ta'kidlaydi. Duduqlanish nutq kamchiligi bo'lgan o'quvchilar uchun nutqni dasturlash birmuncha qiyin bo'lib, biror bir nutqiy materialga tayanmagan holda o'tib ketgan, o'zlari kuzatgan va boshidan kechirgan voqealarni bayon qilishga qiynaladilar. A.V.Yastrebova bu holatni duduqlanuvchilarda til vositalarining yetarli darajada shakllanmaganligi tufayli og'zaki muloqot jarayonida so'zlarni o'z o'rnida qo'llay olmasliklari bilan izohlaydi.¹

R.E.Levinaning so'zlariga ko'ra, duduqlanish nutq kamchiligidagi tortishishlar o'quvchilarda turli xil grammatik kategoriyalardan, xususan, o'tgan, hozirgi va kelajak zamon fe'llarining turli shakllaridan foydalangan holda, nutqidagi "kontekstli" ifoda shakllaridan foydalanish orqali qo'zg'atiladi, voqealarning mantiqiy ketma-ketligini, sabab-oqibat munosabatlarini o'rnatish, tahlil qilish va umumlashtirish orqali bayon qilinadi. O'quvchi oddiy jummalarni, oddiy grammatik tuzilmalarni, masalan, hozirgi zamon fe'l shakllarini ishlatildi.² Bu o'quvchilar nutqning ravonlashishini osonlashtiradi va o'quvchilar nutqidagi tortishishlarni qo'zg'atmaydigan yengil omil hisoblanadi.

Duduqlanuvchi bolalarning nutqi odatiy nutqdan sezilarli darajada farq qiladi. Ularning so'zlash jarayoni notekis, bo'g'in yoki tovushlarning takrorlanishi, cho'zilishi, nutqdagi to'xtalishlar va pauzalar bilan kechadi. Ba'zan ular gapni boshlashda yoki davom ettirishda qiynalib, kerakli so'zni topa olmay, to'xtab qolishlari mumkin. Bu holat nafaqat fonetik darajada, balki psixologik jihatdan ham bolaning nutq faoliyatiga ta'sir ko'rsatadi. Duduqlanuvchi bolalar ko'pincha nutqiy vaziyatlardan qochishga intiladilar, gapirishdan oldin hayajonlanadilar, va o'zlarini noqulay his qiladilar. Ular doimiy ravishda

¹ Шевцова.Е.Е. Теоретический анализ проблемы заикания Основы коррекционной педагогики и коррекционной психологии: заикание. Издательство Юрайт 2019 (22)

² Левина, Р. Е. Нарушения чтения и письма у детей Текст. : избранные труды / Р. Е. Левина ; ред.-сост. Г. В. Чиркина, П. Б. Шошин. М. : Аркти, 2005.-224 с.. (10,41,59,60)



POLAND



POLAND

duduqlanib qolishdan xavotir olib, o'z fikrlarini erkin ifoda etishda qiynaladilar. Bu esa ularning ijtimoiy muhitda faol ishtirok etishini cheklab, o'ziga ishonchsizlik, uyatchanlik va nutqiy passivlikka olib keladi. Bunday bolalarda nutqiy faoliyatni rivojlantirish uchun maxsus pedagogik va logopedik yondashuv zarur bo'ladi. Ularning nutqiy o'ziga xosligini to'g'ri baholab, individual yondashuv asosida ish olib borilsa, duduqlanishni kamaytirish yoki bartaraf etish mumkin. Shu sababli duduqlanuvchi bolalar bilan ishlashda ularning emotsional holati, psixologik muammolari va kommunikativ ehtiyojlari hisobga olinishi zarur. Shunday qilib, duduqlanuvchi bolalarning nutqi nafaqat fonetik darajada, balki psixologik va emotsional jihatdan ham sezilarli farqlar bilan ajralib turadi. Bu holat bolaning shaxsiy rivojlanishi, ijtimoiy faoliyati hamda o'z fikrini erkin ifoda etishiga to'sqinlik qilishi mumkin. Duduqlanishning bunday murakkab ko'rinishlari uning yuzaga kelish mexanizmlarini chuqurroq o'rganishni talab etadi. Shuning uchun duduqlanishning qanday turlari mavjudligi va bu holatni keltirib chiqaruvchi asosiy sabablarni tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi davrda duduqlanish belgilari bir biriga bog'liq bo'lgan 2 ta guruhga ya'ni fiziologik va psixik guruhga ajratiladi. Fiziologik belgilarga: nutqning hosil bo'lishida ishtirok etuvchi a'zolarning tortishishi, markaziy nerv sistema va jismoniy salomatlikning bo'shligi, zaifligi, umumiy gavda va nutq harakatlarining buzilishi kiradi. Psixik belgilarga: nutqda tutilish, his hayajon buzilishi, logofobiyalar, hayajonlanish, vahima, alamzadalik, umumiy zo'riqish, uyquda cho'chib ketish, yuzaki uyqu bilan namoyon bo'ladi.

Nutq hosil bo'lishida mushak tortishishi duduqlanishning tashqi belgisi hisoblanadi. Mushak tortishishiga ko'ra duduqlanish 3 xil bo'ladi: klonik, tonik va aralash. Klonik mushak tortishish vaqtida tovush, bo'g'in yoki so'z bir necha marotaba takrorlanadi (a-a-asal , qa-qa-qa-qalam, tosh-tosh-tosh). Tonik mushak tortishish vaqtida esa so'z boshida to'xtalish ro'y beradi va tutilib gapiruvchi bir tovushdan, bo'g'indan va so'zdan ikkinchi tovushga, bo'g'inga va so'zga o'tolmaydi, uzoq to'xtalib qoladi (....a....sal, q....alam,t....osh). Uchinchi turi aralash (klono-tonik) yoki (tono-klonik) mushak tortishishi kuzatiladi. Tortishish nutqning u yoki bu a'zolari: nafas olish, ovoz paychalari yoki artikulyatsion apparatda ro'y beradi.

Nafas olish buzilishi bilan bog'liq duduqlanish 3 ta shaklga ajraladi: ekspirator, insperator va resperator.

- Ekspirator shakli (nafas chiqarish jarayonida tortishish);
- Insperator shakli (nafas olish jarayonida tortishish, ba'zida xirillash bilan);



- Resperator shakli (nafas olish va nafas chiqarish vaqtida so'zlarning bo'linishi bilan).

Duduqlanuvchi bolalarning belgilari :

Duduqlanuvchi bolalar harf va bo'g'inlarni tutilib-tutilib yoki bir necha bor takrorlab talaffuz qiladi. Ayrim hollarda uning qo'li yoki oyog'i beixtiyor harakatlanib, yuz mushaklari uchib turadi. Shuningdek, bolalarda ichki duduqlanish ham ko'zga tashlanadi. Bunday holatlarda u nima deyish kerakligini biladi-yu, ammo ayta olmaydi. Bu holat tashqaridan qaraganda sezilmaydi.

Duduqlanuvchi bolalarda artikulyatsion apparatdagi tortishish o'rni lab, til, yumshoq tanglayda bo'lishi mumkin. Duduqlanish ko'pincha portlovchi undosh tovushlar (k,q,p,b,t,d,g,g') ni talaffuz qilishda yaqqol seziladi. Tovushning fonetik xususiyati, grammatik qurilishning xususiyati, grammatik qurilishning buzilishi ham tortishishga sabab bo'ladi. Tortishishga kayfiyat, atrofdagi muhitning ham ta'siri katta. Bolalar o'ziga tanish bo'lgan she'rni aytishda, tanigan odamlari orasida kamroq tutiladi. Duduqlanadigan bolalarning hayajonli nutqida fonetik - fonematik va leksik grammatik buzilishlar ko'zga tashlanadi. Nutq asoslanmagan pauzalar, qaytariqlar bilan uzilib - uzilib chiqadi, jarangdorlik, talaffuz sur'ati, tovush balandligi duduqlanuvchining emotsional holati bilan bog'liq bo'ladi. Shuningdek, o'z nuqsoniga bo'lgan diqqati nuqsonni kuchaytirishda omil bo'lishi ham mumkin. Nutqida zaiflik, qo'rqqoqlik, tortinchoqlik, ta'sirchanlik va shu kabilar vujudga keladi.

Nutqdagi qiyinchiliklarni niqoblashga bo'lgan urinishlar duduqlanadigan kishilarda turli xil hiylalar (qo'l, oyoq, tana, bosh bilan harakat qilish, til uchi , pastki labni tishlash, chapillatish, tovushlarni ovoz chiqarmay artikulyatsiyalash)ni qo'llash bilan namoyon bo'ladi.

Duduqlanishning kechishi og'ir yengilligiga qarab 3 darajaga bo'linadi:

- Yengil daraja tez gapirishda, asabiy holatda duduqlanadi, tezda o'tib ketadi;

- O'rta daraja tinch, vazmin holatda ham duduqlanadi, his hayajonli vaqtda kuchli duduqlanadi;

- Og'ir daraja butun nutqi davomida duduqlanadi.

Duduqlanish sabablari 2 guruhga: moyillik sabab (negizga) va keltirib chiqaruvchi sabab (turtkiga) bo'linadi. Moyillik sabablariga quyidagilar kiradi:

- Ota - onalarning nevropatik kasallanishi;

- Duduqlanuvchining o'zidagi nevropatik xususiyatlar (tunggi qo'rquv, enurez, kuchli qo'zgaluvchanlik, xis-hayajonli zo'riqish);



POLAND



POLAND

- Konstitusional moyillik (oliy nerv faoliyatining juda ham nozikligi, vegetativ nerv sistemasining juda ham nozikligi);
 - Nasliy buzilish (nutq apparatining tug'ma zaifligi);
- Keltirib chiqaruvchi sabablar:
- Bosh miyaning ona qornida va tug'ilish vaqtidagi jarohatlanishi, asfiksiya, yuqumli kasalliklar hamda boshqa jarohatli buzilishlar.
 - Anatomik fiziologik sabablar (ensefalit, miyaning chayqalishi, zaharlanish, qizamiq, ko'kyo'tal, nutq apparatining to'liq rivojlanmaganligi);
 - Ruhiy va ijtimoiy sabablar, bir lahzalik ruhiy shikast (qo'rquv, vahimaga tushish);
 - Noto'g'ri tarbiya (tantiqlik, qattiqqo'llik, tez gapirish, ota onalarning notekis nutqi, kichik yoshli bolalarni haddan ortiq nutq materiallari bilan zo'riqtirish).

Yuqoridagi tahlillar asosida duduqlanish bolaning nutqiy rivojlanishida jiddiy to'siq bo'lib, u nafaqat nutq apparatidagi fiziologik buzilishlar, balki psixik holat va emotsional barqarorlik bilan chambarchas bog'liq ekanligi ayon bo'ladi. Duduqlanishning klinik belgilari, mushak tortishishlari, nafas olishdagi buzilishlar va nutqning murakkab fonetik-grammatik tuzilmalarda to'xtab qolishi uning ko'p qirrali buzilish ekanligini ko'rsatadi. Duduqlanuvchi bolalarning nutqi sog'lom tengdoshlaridan so'zlash sur'ati, silliqligi, emotsional ifodasi hamda psixologik tayyorgarlik darajasi bilan keskin farq qiladi. Shuningdek, duduqlanish nafaqat tashqi belgilar orqali, balki bolaning ichki holati – logofobiya, hayajon, o'ziga ishonchsizlik, tortinchoqlik kabi psixologik omillar orqali ham o'zini namoyon etadi. Shunday qilib, duduqlanish — bu faqat birgina nutq buzilishi emas, balki bolaning umumiy ruhiy-emotsional va fiziologik holatini qamrab oluvchi murakkab muammo bo'lib, uni erta aniqlash, chuqur tahlil qilish va tizimli tarzda korreksiya ishlarini yo'lga qo'yish zarur bo'ladi. Bu esa pedagog, psixolog, logoped va ota-onalarning birgalikdagi faoliyatini taqozo etadi.

Xulosa Duduqlanish – bu nafaqat nutqiy faoliyatdagi buzilish, balki bolaning umumiy psixofiziologik rivojlanishiga bevosita ta'sir etuvchi murakkab muammo hisoblanadi. U fonetik, grammatik va nafas olishdagi buzilishlar bilan bir qatorda, bolalarda psixologik noqulaylik, emotsional zo'riqish, logofobiya, o'ziga ishonchsizlik kabi ikkilamchi holatlarni keltirib chiqaradi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, duduqlanuvchi bolalar og'zaki muloqotda erkin ishtirok eta olmaydilar, bu esa ularning ijtimoiylashuvi va shaxsiy rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Duduqlanishning kelib chiqishida fiziologik, psixologik va ijtimoiy



POLAND



POLAND

omillar o'zaro chambarchas bog'langan bo'lib, uning klinik belgilari mushak tortishishlari, nutqdagi to'xtalishlar va fonetik-grammatik murakkabliklar ko'rinishida namoyon bo'ladi. Shuningdek, duduqlanuvchi bolalarning nutqi sog'lom tengdoshlarinikidan sezilarli farq qilgani sababli, ularni o'z vaqtida aniqlash, individual yondashuv asosida tizimli logopedik va psixologik yordam ko'rsatish muhim ahamiyatga ega. Shu bois, duduqlanish muammosini bartaraf etishda pedagog, psixolog, logoped va ota-onalarning hamkorlikdagi sa'y-harakatlari, bolaning nutqiy va emotsional ehtiyojlarini inobatga olgan holda olib boriladigan kompleks yondashuv asosiy omil bo'lib xizmat qiladi. Erta tashxis va tizimli korreksiya choralari orqali duduqlanishni yengillashtirish yoki butunlay bartaraf etish mumkin..

Foydalanilgan adabaiyotlar ro'yxati:

1. Шевцова.Е.Е. Теоретический анализ проблемы заикания Основы коррекционной педагогики и коррекционной психологии: заикание. Издательство Юрайт 2019 (22)
2. Левина, Р. Е. Нарушения чтения и письма у детей Текст. : избранные труды / Р. Е. Левина ; ред.-сост. Г. В. Чиркина, П. Б. Шошин. М. : Аркти, 2005.-224 с.. (10,41,59,60)
3. Асатиани Н.М. Заикание у взрослых / / Заикание (Под.ред. Н.А.Власовой, К.П.Беккера. — М., 1983. С. - 180-22).
4. Волкова Г.А. Игровая деятельность в устранении заикания у дошкольников. — М., 1983.
5. Выгодская И.Г. и др. Устранение заикания у дошкольников в игре. -М. , 1984.
6. Заикание /Под.ред. Н.А.Власовой, К.П.Беккера. —М., 1983.
7. Морозова Н.Ю. Как преодолеть заикание. Изд-во ЭКСМО. —М., 2002.
8. Ковшиков В.А. Специфика заикания при различных нервно- психических расстройствах / / Педагогические пути устранения речевых нарушений у детей. - Л., 1976. 4-25 бетлар.
9. Mo'minova L.R. Tutilib gapiruvchi o'smirlar uchun qo'llanma. "O'qituvchi". — T., 1980.
10. Чевелева Н.А. Исправление заикания у школьников в процессе обучения. - М., 1978.
11. Чевелева Н.А. Исправление речи у заикающихся дошкольников. — М., 1965.
12. Ястребова А.В. Коррекция заикания у учащихся общеобразовательной школы. — М., 1980.